O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR YO‘NALISHI

ЎзМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУз

ACTA NUUz

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ 1997 ЙИЛДАН ЧИҚА БОШЛАГАН

2022
1/1/2

Ижтимоий-гуманитар фанлар туркуми

Бош муҳаррир:

И.У.МАДЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир ҳайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.
Аширов А.А. – т.ф.д., проф.
Баллиева Р. – т.ф.д., проф.
Маликов А.М. – т.ф.д., проф.
Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.
Муртазаева Р.Ҳ. – т.ф.д., проф
Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.
Нишонова О.Ж. – ф.ф.д., проф.
Абдуллаева Н.Б. – ф.ф.д., проф.
Мадаева Ш.О. – ф.ф.д, проф.
Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д, проф.
Эргашев И. – ф.ф.д, проф.
Ахмедов Х.А. – с.ф.д.
Мирзаахмедов К.М. – с.ф.ф.д., PhD.
Мухаммедова Д.Г. – пс х.д
Болтабоев Ҳ. – фил.ф.д., проф.
Раҳмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.
Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.
Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.
Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.
Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.
Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2022

МУНДАРИЖА

Тарих

Абдуллаев Э. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда Бобурийлар маънавий меросининг аҳамияти ..4
Bohodirov I, Jurayev B. Turkistonda XIX asr o‘rtalarida armiya va harbiy ta’lim (Buxoro misolida).. 6
Йўлдошев А. Қирғизистон ўзбеклари жамоат ташкилотлари тарихига бир назар 10
Патхиддинов Р. Фарғона вилоятида безгак касаллиги.....14
Раджабов О. Индустрлаштириш йилларида Ўзбекистон темир йўл тизимининг матбуотда ёритилиши.....17
Элмуратова Ш. Давлат намоёндаси Усмон Юсупов уй-музейининг ташкил этилиши, фаолиятининг муҳим йўналишлари.....19

Фалсафа, Педагогика, Методика, Психология, Социология

Abdullayev N. Biologiya va kimyo fanlariga muvofiq tizimli tahlil asosida fizikani o‘qitish metodlari 23
Абдуллаева Ч. Окказионализмы в рекламном дискурсе 26
Абдуллажанова Д. Влияния социальных стереотипов как фактор женской активности в управлении 30
Алимова М. Маҳалла институти – жамоатчилик назоратининг бир кўриниши 34
Alimova N. Use of innovative methods in teaching world literature use of innovative methods in teaching world literature 37
Aralov M. Talabalarnı o‘qitishda dasturıy vosıtalar yordamıda kartalar bılan ıshlash hamda tızımlı yondashuv asosıda o‘qıtıshnı takomıllashtırısh 40
Aslanova N. Boshlang‘ıch sınf o‘quvchılarını mutolaaga qızıqtırıshda o‘yın-mashqlardan foydalanıshnıng afzallıkları.....44
Ахмаджонов О. Замонавий жамиятда электрон маданиятнинг хусусиятлари 47
Бурханов Х. Рақамли жамиятда миллий сегмент фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. 50
Valiyeva Sh. The importance of multimedia in education.....54
Давидов У. Глобаллашув жараёнида миллий ғоя -мафкуравий таҳдидларни бартараф этиш омили сифатида.....57
Зияева М. Лойиҳалаш мустақил таълимни ривожлантиришнинг дидактик воситаси сифатида.....60
Ibaydullayeva U. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi nizoning psixologik omillari 63
Ибрагимов А. Таълимда когнитив тадқиқотлар: назария, шаклланиш ва ривожланиш йўналишлари 66
Ishonxanova I. Umumta’lim maktablarining 6-sinfida alisher navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishidagi muammolar.....69
Қандов Б. Глобаллашув жараёнида инсон ҳуқуқлари ва эркинлигининг ижтимоий-фалсафий асослари.....73
Quvondiqov S. Футбол спорт турида тактика ва тактик тизимларнинг аҳамияти 77
Мирзақулов И. Узлуксиз таълим жараёнида жисмоний тарбия дарслари самарадорлигини ошириш технологияларини такомиллаштириш.....80
Мухаметов А. Юқори малакали спорчилар жисмоний қобилиятларини ривожлантириш усуллари.....83
Мухаммадиев К. Олий таълим муассасаларида жисмоний тарбия жараёни самарадорлигини такомиллаштириш 86
Назаров С. Жисмоний машқлар орқали ўқувчиларда чарчоқни олдини олиш воситалари 90
Назиров Қ. Узлуксиз мусиқа таълими тизимига инновацион ёндашув 92
Raupova L., Axmedova M. Oliy filologik ta'limda talabalarning nutqiy kompetentsiyasni rivojlantirishda kredit-modul tizimiga o‘tishning amaldagi holati va istiqbollari 95
Raximov V. Talabalarda sog‘lom turmush tarzi hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish 98
Рахманов Б. Миллий ғояни ревожлантириш омиллари 101
Ruziyev A. Brass usulida suzish texnikasini o‘rgatish.....105
Саидова К. Человек как субъект жизни в русской экзистенциальной философии 109
Saidazimova I., Tahirova N. Motivation in foreign language acquisition: analysis of the shift from intrinsic to extrinsic motivation 113
Тошматов А., Рисқулова М. Таълимда мавзулаштирилган видеодарсликлар яратиш 117
Тоштемирова С. Узлуксиз таълим тизимида тарих фанларни ўқитишнинг педагогик стратегиялари 120
Тўраев Ш., Оймиров С., Мухиддинова М. Менежмент тизимларини сертификатлаштириш органларида хавфларни баҳолашнинг жорий қилишнинг асослари.....124
Turakulov O., Halimov O‘. Muhandis mutaxassislarda matematik kompetentligini rivojlantirish vositasi sifatida ikki karrali integrallarni hisoblash usullari.....129
Туракулова А. Вовлеченность родителей в жизнь детей и её последствия для развития ребенка 133
Umarov B. Post modernist methods of teaching foreign language.....136
Урунова Ш. Инглиз тили ўқитишда терминологик лексикани ўзига хос хусусиятлари.....139
Усмонов А. Футбол спорт турида тактика ва тактик тизимларнинг аҳамияти.....142
Файзиева О. Силовая подготовка в физическом воспитании студентов 145
Xasanova S. Maktabgacha yosh davri bolalarida qo‘rquv va xavotirlanish holatlarini yuzaga keltiruvchi omillar 149
Холиқов С. Ўзбекистонда миллатлараро бағрикенглик маданиятини ривожлантиришнинг фалсафий асослари.....152

Шамсиев Ў. Мактабгача ёшдаги болалар ўзини-ўзи англашига таъсир этувчи муносабатлар 156
Эрмирзаев А. Юқори синф ўқувчиларига инглиз тилида мамлакатшуносликка оид матнларни ўқишни ўргатиш илмий-методик муаммо сифатида 161
Yuldashev U. Bo‘lajak mutaxassislarning web-texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish 165

Филология

Абдувахобова М. Лингвофольклоршунослик ва Симпсон типологияси: фанлараро муносабатлар 169
Абдуқаххоров С. Қалин ва маҳр атамаларининг лингвокультурологик таҳлили 172
Абраева Ш. Француз тили лексик системасида лотин ва юнон морфемаларининг лингвистик хусусиятлари (тиббиёт матнлари асосида) 175
Азимова А. К вопросу выражения модальных признаков в корейском языке (на примере форм долженствования) 178
Аташикова Н. Учет жанровой специфики при отборе профессионально-ориентированного содержания обучения английскому языку студентов-экономистов 181
Ашурова Н. Рисолат Ҳайдарованинг “Жавзо” романида аёллар образи тасвири 185
Барлибоева С. Сиёсий коммуникацияда лингвопрагматик бирликларнинг қўлланилиши 189
Baxridinova E. O‘zbek va nemis tillarida kulgi freymi va uni ifodalovchi leksik birliklar 192
Бекмуродова З. Хиазмнинг лингвистик таърифи ва турлари 195
Бердиева Ш. Авторское «я» в маърифий романе «Чулпан» Н.Ф.Каримова 198
Ғаниев М. Тарихий романда конфликт(Нурали Қобулнинг “Султоннинг сўнгги куни ёхуд Амир Соҳибқирон ва Тўхтамишхон” романи мисолида) 202
Gibraltarskaya O. Representation of artistic systems of XX century Russian writers 206
Dusanova T. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida nasr va nazm uyg‘unligi 209
Ёрматова Ё. Жаҳон тилшунослигида интерфернция тушунчаси ва унинг турлари 213
Jumayeva M., Jo‘rayeva B. Lingvokulturologiya va etnolingvistika munosabati 217
Jo‘rayeva B., Ubaydova H. Qarama-qarshilikning lingvistik aspekti 220
Ибрагимов Ш., Рашед Айед Р. Ал Ҳарби. Роль и место гражданской журналистики в общественной жизни Саудовской Аравии 224
Исакова Г. Компонентларни алмаштириш усулининг қанотли сўзларда намоён бўлиши 228
Iskandarova D. Semantic structure of food idioms in the English and Uzbek languages 231
Каримова Д. Турли фанлар доирасида “ўлим” концептининг мазмуний ифодаланиши 235
Xiaowei Yu. Theoretical foundations of the study of sports terminology 238
Мавлонова М. Инглиз тилидан ўзлашган ахборот коммуникация технологиялари терминларини ўзбек тили лексик тизимига график, фонетик, семантик мослашиш жараёнлари 241
Мадалиева Д. Философская проблематика романа М.Ю.Лермонтова “Герой нашего времени” 245
Murodova D. Effective language lesson planning 248
Отаханова М. “Масофа” ва “ҳажм” лексемаларининг луғавий талқинга доир назарий-фалсафий асослари ва амалий тадқиқот йўналишлари 251
Rasulova N. Toponyms as lexic and semantic, stylistic component expressing color designation in the english language 255
Расулова Н. Тиббиёт терминларининг айрим ўзига хос хусусиятлари (А.Қосимовнинг «Тиббий терминлар изоҳли луғати»ни ўрганиш юзасидан) 258
Рашед Айед Р. Ал Ҳарби. Формы и методы освещения в СМИ вопросов паломничества и туризма 261
Рустамов Д. Драматик асарлар матнида морфологик бирликларнинг социопрагматик таҳлили 266
Сатимова Д. Инглиз ва ўзбек электрон луғатларида субстандартнинг статистик таҳлили ва унинг таржима муаммолари 270
Сафарова Х. Француз тилидан инглиз тилига ўзлашмаларнинг диахрон ва синхрон таҳлили 274
Уралов А. Аффиксоидлар масаласи ва улардаги номутаносибликлар 277
Usarova D., Ganapathi N. Problems and methods of translating legal terminology 280
Цой Т. Изучение фразеологических сочетаний в корейском языке 283
Эгамбердиева Г. Способы использования гипербол в сказках и дастанах 286
Юсупова Г. Корейс ва ўзбек тилларида узр/кечирим сўраш нутқ актининг ифодаланиши 290
Юсупова Қ. “Озода ва ёруғ томонда” ҳикоясида қаҳрамонлар руҳияти ўртасидаги муштараклик 293

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/1/2]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК859.9(865.1)

Nozima ASLANOVA,
Buxoro viloyati XTXQTMOHM mustaqil tadqiqotchisi

Buxoro Davlat Universiteti dotsenti, f.f.f.d.(PhD) Akhmedova M.B. taqrizi asosida

ADVANTAGES OF USING GAME EXERCISES TO INCLUDE PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN READING

Abstract

Reading is important in human life. Through reading, a person acquires knowledge about existence and society, and a person who does not know how to read is no different from a blind person, because reading a book opens the eyes of the soul. Therefore, the culture of reading is considered to be the first link in society, first of all, the example of parents in the family, in the process of various activities in the preschool organization, and from the moment of stepping on the threshold of school, in the primary grades should be taught through analysis.

Key words: reading, reading culture, preschool organization, elementary grades, literary texts, genres.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГРОВЫХ УПРАЖНЕНИЙ ДЛЯ ВКЛЮЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В ЧТЕНИЕ

Аннотация

Чтение играет важную роль в жизни человека. Через чтение человек приобретает знания о существовании и обществе, а человек, не умеющий читать, ничем не отличается от слепого, потому что чтение книги открывает глаза души. Поэтому культура чтения считается первым звеном в обществе, прежде всего, примером родителей в семье, в процессе различной деятельности в дошкольной организации, и с момента вступления на порог школы, в начальных классах следует учить через анализ.

Ключевые слова: чтение, культура чтения, дошкольная организация, начальные классы, художественные тексты, жанры.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MUTOLAAGA QIZIQTIRISHDA O‘YIN-MASHQLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Mutolaa inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O‘qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo‘ladi, o‘qishni bilmagan odamning ko‘zi ojiz kishidan farqi yo‘q, chunki kitob mutolaasi insonning qalb ko‘zlarini ochadi. Shunday ekan, mutolaa madaniyati jamiyatning ilk bo‘g‘ini sanalmish, eng avvalo, oilada ota-ona namunasi, maktabgacha ta’lim tashkilotida turli mashg‘ulotlar jarayonida, maktab ostonasiga qadam qo‘yganidan boshlab esa, boshlang‘ich sinflarda turli janrlardagi badiiy matnlar tahlili orqali o‘rgatilmog‘i kerak.

Kalit so‘zlar: mutolaa, mutolaa madaniyati, maktabgacha ta’lim tashkiloti, boshlang‘ich sinflar, badiiy matnlar, janrlar.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi. Konsepsiyaga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar birinchidan, “Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirishdan iborat. Shuningdek, o‘quv fanlari doirasidagi ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Boshlang‘ich ta’limda mutolaa madaniyatini egallash yuzasidan eng qulay fanlar sifatida ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari muhim o‘ringa ega. Kitob o‘qishga qiziqtirish uchun bu fanni har tomonlama reproduktiv tarzda tashkil etish o‘quvchilarni muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Chunki mutolaa orqali bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilish, o‘zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka ijobiy munosabat, kattalar va tengdoshlari bilan kommunikativ va ijtimoiy hamkorlik qilishga motivlarning paydo bo‘lishi kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kitob o‘qish orqali o‘quvchilarda bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi, o‘z xalqining va boshqa xalqlarning an’analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi, yoshi xususiyatlariga mos shaxsiy fazilatlarning shakllanishi kuzatiladi. Kichik maktab yoshida ba’zi tushunchalarni ongli ravishda anglashga kattalar tomonidan tashkil etiladigan tushuntirish ishlari esa o‘quvchiga komil inson uchun muhim bo‘lgan xavfsiz hayot ko‘nikmalarining shakllanishi, kasblar olami to‘g‘risida tasavvurlarning kengayishi, kasbga va mehnatga qiziqishning paydo bo‘lishi, vijdonan mehnat qilishga o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatishga, muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirishga olib keladi.

Badiiy asarning ongli tarzdagi mutollasi va tahlili orqali o‘quvchilarni erta yoshdan boshlab o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish, turli faoliyat (ta’lim olish, o‘yin, mehnat)da o‘zini namunali ko‘rsatish, tengdoshlari bilan ma’naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, o‘zbek tilining betakror nutqiy ko‘nikmalarini o‘rganishga olib keladi.

Ana shunday go‘zal nutqning betakror shakllari, namunalari sifatida yuzaga kelgan so‘z durdonalari — afsonalar, asotirlar, dostonlar, ertaklar, maqolu matallar, topishmoqlar, qo‘shiqlar, she’rlar, dramalar, hikoya, qissa va romanlar insoniyat badiiy dahosining noyob shahodatnomalari sifatida yashab kelmoqda, yaratilmoqda va, albatta, bundan keyin ham yaratiladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun kichik yoshdagi o‘quvchilarga xalqimiz qadriyatlarini tarannum etuvchi badiiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari mutolaasi va ulardagi asosiy mazmunni tushunishning o‘ta qulay usul va vositalarini ishlab chiqish zaruriyati kelib chiqmoqda.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish faoliyati barcha darslarda amalga oshiriladi va bu faoliyat quyidagi vazifalarni hal etadi:

1. O‘qish malakasini takomillashtirish. O‘quvchilarda yaxshi, to‘g‘ri o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish;

2. O‘quvchilarni tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish;

3. Bilim olishga o‘rgatish, kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish;

4. O‘quvchilarning nutqini va tafakkurini o‘stirish. Adabiy tasavvurni shakllantirish.

Bu vazifalarni hal etish jarayonida esa turli maqsadlarni qo‘yish va shu maqsadlar yuzasidan turli faoliyat usullarini ishlab chiqish ijobiy samara beradi. Har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan tez o‘qish bilan bog‘liq musobaqa mashqlarni bajarish mumkin. Bu mashqlar asosan,

diqqat va e’tiborni jamlash;

ko‘rish maydonini kengaytirish;

xotirani mustahkamlashga asoslangan bo‘lishi kerak.

Tez o‘qishni ta’minlovchi mashqlarga zamonaviy o‘yin-mashqlar misol bo‘la oladi. Masalan, “Noodatiy mutolaa”, “Matn strukturasini qayta tuzish”, “Matnni tasvirlash”, “HA yoki YO”Q”, “Matn ichidan top” kabi innovatsion o‘yinlar o‘quvchilarni faollashtirishga, matnni tez o‘qish, ongli idrok etishga yordam beradi. Mashqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar matnni mutolaa qilishga majbur bo‘ladilar, o‘zlari sezmagan holda asosiy mazmunni anglaydilar.

“Noodatiy mutolaa” mashqi

kulrang qizil sariq yashil zarg‘aldoq ko‘k
oq qora moviy jigarrang pushti binafsha
kulrang qizil sariq oq yashil ko‘k zarg‘aldoq
moviy ko‘k qora jigarrang pushti binafsha

Ushbu mashq turi o‘quvchida diqqatni va ko‘rish qobiliyatini mustahkamlaydi. Dastavval o‘quvchiga so‘zlarni o‘qish vazifasi beriladi. Keyingi vazifa esa so‘zlar shriftining rangini aytish hisoblanadi. Bu mashqda o‘quvchi diqqati shakllanadi va qiziqarli faollashtiruvchi o‘yin sifatida boshqa o‘quvchilarga ham alohida motivatsiya uyg‘otadi.

Tahlil va natijalar. “Matn strukturasini qayta tuzish” mashqi

Dastavval o‘quvchilarga ertak yoki hikoya matni o‘qib eshittiriladi. Keyingi vazifa sifatida o‘quvchilar bilan oddiy savol va javoblar tashkil etiladi. Mustahkamlash mashqi sifatida matnda mavjud bo‘lgan gaplar alohida qog‘ozga ko‘chirilib, qirqib olinadi va sinf o‘quvchilariga tarqatiladi. O‘quvchi o‘zining partadoshi bilan birgalikda matnning faqatgina bir qismi (1 ta gap yozilgan qirqma kartochka)ni olishi kerak. 1-gapni olgan o‘quvchi o‘z partadoshi bilan 1-partaga, 2-gapni olgan o‘quvchilar juftligi 2-partaga, …… ertak matnining oxirgi gapini olgan juftlik oxirgi partaga o‘tirishi kerak.

U hech o‘radan chiqishning ilojini qilolmabdi.
— Ey, hali eshitmadingmi? — debdi Tulki.
Balki sen ham tusharsan?
U Tulkidan pastda nima qilayotganini so‘rabdi.
Echkiga bu maslahat ma’qul kelib, pastga sakrabdi.
Baxtsiz tasodif tufayli bir Tulki o‘raga tushib ketibdi.
Ammo Tulki tezlik bilan uning orqasiga chiqib, oyoqlarini uning uzun shoxlariga qo‘yibdi-da, o‘radan chiqib olibdi.
— Yaqinda qurg‘oqchilik bo‘larmish, shuning uchun men bu yerga suv borligiga ishonch hosil qilish uchun tushdim.
Bir payt tepadan Echki o‘tib qolibdi.
Hech qachon o‘zi mushkul ahvolda qolganning maslahatiga quloq solma
— Xayr, do‘stim, — debdi Tulki, — keyingi safar esingda tursin:

Nihoyat ertak matni qayta tuziladi. O‘qituvchi ertakni qayta o‘qiydi yoki audiomatnini eshittiradi. O‘quvchilar diqqat bilan matnni tinglaydilar. Ketma-ketlik to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri davom etganligi o‘quvchilar va o‘qituvchi tomonidan

birgalikda tekshiriladi. Bunday mashq turi o‘quvchilarga ziyraklik, diqqat, tushunib mutolaa qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida ota-onalar orasida ko‘pgina munozaralarga sabab bo‘ladigan muammoli savollarga e’tibor qaratsak, nega bolalarning kitob o‘qimasligi, buning uchun ota-onalar oilada, o‘qituvchilar esa ta’lim muassasalarida nima ishlar qilishimiz kerakligi, mutolaa bolaga nima berishi, bolani o‘qishga qanday o‘rgatish mumkinligi yuqoridagi fikrlar va o‘yin mashqlar orqali o‘quvchilarga ijobiy ta’sir etishi yuzasidan taklif va ko‘rsatmalar sifatida bayon etildi. Avvalambor, bolalarga berilgan vazifani bajarishni o‘rgatishimiz kerak. Buning uchun beriladigan vazifa bola uchun quvonchli kayfiyat bag‘ishlashi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2008 й. Б-3
2. O‘qish kitobi Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 6-nashr Toshkent «Yangiyo‘L Poligraf Servis» 2017 B-37.
3. M.S. Djamolitdinovna “Improvement of pedagogical conditions for the development of communicative culture in future higher education specialists”. International journal of psychosocial rehabilitation (https://www.elibrary.ru/contents.asp?id=42872025). Volume 24; Issue 3. February, 2020. 430-436 pp.
4. Mehrinigor Bahodirovna, A. “Ways of Translation of ‘spirituality’ Terms in English and Uzbek Languages”. Proceedings of The ICECRS, Vol. 4, Nov. 2019, doi:10.21070/icecrs.v4i0.124.
5. M.B. Akhmedova. Spirituality, faith and personal development: different approaches. Стратегии и тренды развития науки в современных условиях, 59-61, 2019
6. Bahodirovna, Akhmedova M. "Lexicographic Analysis of “Spirituality” Terms in English and Uzbek Languages." International Journal on Integrated Education, vol. 2, no. 5, 2019, pp. 140-143, doi:10.31149/ijie.v2i5.190 (https://dx.doi.org/10.31149/ijie.v2i5.190).
7. Mehrinigor Bahodirovna Akmedova, “Introduction of the concepts of "spirituality" and "enlightenment" in jadid literature”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. TITFL, pp. 131-136, Apr. 2021.
8. Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna, “Problems in translating the concept of "spirituality" ”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. TITFL, pp. 290-295, Apr. 2021.
9. Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna, “Problems in translating the concept of "spirituality" ”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. TITFL, pp. 290-295, Apr. 2021.
10. Mehrinigor Bahodirovna Akmedova, “Introduction of the concepts of "spirituality" and "enlightenment" in jadid literature”, iejrd - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. TITFL, pp. 131-136, Apr. 2
11. lex.uz
12. ertak.uz